



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel-may.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdulkarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI	26
Yarboeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	
RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI	30
Abdulxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	34
Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза	
O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	39
Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ.....	44
Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исмаиллаевна	
O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	50
Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	57
Jumanova Shaxlo Boxodir qizi, Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li	
RAQOBAT VA MONOPOLIYA SHAROITIDA BOZOR SAMARADORLIGI HAMDA IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI	62
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
ИНВЕСТИЦИИ В ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКИ	68
Насиров Дилшод Фархадович, Тохинова Азиза Олимжоновна, Исокулова Хуснора алохиддиновна	
FRANCHAYZING FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	74
Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
AGROINDUSTRIAL BIOMASSANING IKKILAMCHI UTILIZATSIYASI – YOPIQ SIKL IQTISODIY MODELINING INFRATUZILMAVIY TAYANCHI: IQTISODIY-EKOLOGIK MEZONLAR VA MILLIY AMALIYOT.....	80
Kadirova Maraljon Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING MOLİYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	87
Alimov Umid Xamid o'g'li, Rustamov Maqsud Suvonqulovich	
RAQOBATLASHMAGAN BOZOR SHAROITIDA NARX BELGILASH TAMOYILLARI.....	92
G'aniyev Fayzbek Abduxamid o'g'li, Jumanazarov Og'abek Ahmadjon o'g'li, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
DEVELOPMENT OF LEGAL REGULATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE	104
Akhrorova Munavvar Farkhod kizi, Abdalimov Orzubek Tuychibek o'g'li, Samiyev Damir Ahmad o'g'li, Rakhmonov Umrzoq Otaboy o'g'li	



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATI.....	112
Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U.Umarov	
O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	119
Raxmonova Sabina Navro'z qizi, Nazar Nazarov G'ulomovich	
TARMOQ TUZILMASINI SHAKLLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING AHAMIYATI	124
Samadova Solik qizi, Normurodov Husan	
TIJORAT BANKLARINING RAQAMLI XIZMATLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	130
Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li, Karimov Umrbek Javlonbek o'g'li	
ISLOM MOLIYASINI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI.....	137
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
XALQARO VA MILLIY BUXGALTERIYADA NOMODDIY AKTIVLARNI HISOBGA Olish, BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	141
Axmetova Nasiba Axmetovna, Mavlanov Normo'min Normamatovich	
URBANIZATSIYA SHAROITIDA TRANSPORT MARKETINGINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	147
Iskandarov Qudrat Shuxratovich, Ataniyazova Zarina Niyetbay qizi	
IQTISODIY ATAMALARINING O'ZBEK TILIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....	154
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Salamova Oliya	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HAJMI, OMILLARI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI.....	158
Tohirova Gulnoza Zokirovna, Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li	
RAQAMLI BANK TIZIMLARI VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH)NING AN'ANAVIY BANKLARGA TA'SIRI.....	164
Shermuxe'dov Bexzodjon Usmonovich, Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	
SUN'IY INTELLEKTNING AXBOROT BOZORIGA TA'SIRI: MAHSULOT VA MEHNAT BOZORIDAGI O'ZGARISHLAR.....	170
Mo'y'dinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi, Ismanov Ibrohim Nabiye'vich	
ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA.....	175
Axmedov Xasan Ruzibaye'vich, Ruzibaye'va Karima Shavkat qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	
SARATON KASALLIGIDA PSIXOLOGIK REABILITATSIYA: "5 OLAM" MODELINI KENGAYTIRISH VA AMALIY QO'LLASH	182
Salayeva Laylo Shavkatovna, Toshtemirov Doston Tohirjon o'g'li	
THE CHALLENGES OF MANAGING CROSS-FUNCTIONAL TEAMS IN PHARMACEUTICAL PROJECTS	187
Murodova Feruzakhon Talatovna	
GREEN ECONOMY AND GREEN INVESTMENT: SUSTAINABLE AS A MAIN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH.....	194
Tursinov A.J., Jalgasbaeva J.A., Axmetova U.M.	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	199
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich, Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li	
O'ZBEK TILINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI.....	204
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Baxronov Timur Rustamovich	



ZAMONAVIY TASHKILOTLARDA STRATEGIK BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	208
Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li, Ashurova Jasmina Jo'ra qizi	
O'ZBEKISTONDA ATROF-MUHIT IQTISODIYOTI VA BARQAROR RIVOJLANISH MASALALARI.....	213
Boltayeva Sh.B., Hayitova Charos, Latipova Jasmina	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	216
Izzatillayeva Munisabonu Ikromjon qizi, Yangiboyev Sirojddin Juramurodivich	
O'ZBEKISTON EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING ROLI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	220
Ashurova Nilufar Yuldosh qizi, Xurshidjon Tillayev Sulaymon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH	225
Iskenderov Axmet Maksetbaevich, Irisaliyeva Kamola Otabekovna	
MUQIMIY IJODIDA SAYOHAT MOTIVLARI VA ULARNING ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	228
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Muxitdinova Muxlisa Sadriddinovna	
HISTORICAL STAGES OF DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE	233
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Komilov Sarvar Firdavs ugli	
O'ZBEK TILINING RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR DAVRIDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	237
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Faruxov Shoxrux Tolibovich	
УЧЁТ ТРУДА И ЗАРАБОТНОЙ ПЛАТЫ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРИКЛАДНЫЕ АСПЕКТЫ.....	242
Махмуджанов Мухаммадали Максуджан угли, Абдурашидова Марина Сагатовна	
O'ZBEKISTONNING GLOBAL IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	246
Xudonazarov Murod Maxmudjanovich, Ramanberdiyev Umidbek Jamoladdin o'g'li	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА: АНАЛИТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НА ПРИМЕРЕ НИУ ВШЭ	249
Бозорова Фарангиз Шерзод кизи, Мусаев Озоджон	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	255
Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Abduraxmonova Aqida Fayzulla qizi	
NAVOIY ERKIN IQTISODIY ZONASINING NAVOIY VILOYATI IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI.....	260
Raxmonov Ilg'or G'aybullayevich, Zuvaydullayeva Shahzoda Sayfiddin qizi	
KORXONALARDA KASSADAGI PUL MABLAG'LARI HISOBINING HOZIRGI HOLATI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	265
Isroilov Zuhridin, Toshimov Azizbek	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	269
Karimova Latofat Sadullayevna, Jabborov Abdulla Akbar o'g'li	
O'ZBEKISTON FUQAROLARINING MEHNAT MIGRATSIYASIDA HUQUQIY HIMOYASINI TA'MINLASH	276
Shamsiddinov Yahyobek Anvar o'g'li, Musayev Ozodjon	
IQLIM O'ZGARISHINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI: QISHLOQ XO'JALIGI VA SANOATDAGI XAVF VA YO'QOTISHLAR.....	282
Shohibov Azizbek Dilshod o'g'li, Karimova Komila Daniyarovna	



DIGITAL ECONOMY AND INNOVATIVE DEVELOPMENT STRATEGIES	287
Samadqulov Muhammadjon Islom ugli, Ismoilov Sulaymon Ahmadjon ugli	
МЕТОДИКА ПРОВЕДЕНИЯ АУДИТОРСКОГО АНАЛИЗА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ИМ АУДИТОРСКОЙ ОЦЕНКИ	290
Мирзаева Сабина Хушнудовна, Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи	
O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING AHOLINING REAL DAROMADLARIGA TA'SIRI.....	294
Abdullayeva Zulfiya Izzatovna, Ashurova Jasmina Jo'ra qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR VA DAVLAT STANDARTLARI ASOSIDA LIKVIDLIK RISKLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	298
Quvondiqov Rozimurod, Toshimov Azizbek	
ECONOMIC EFFICIENCY OF FINANCING INFRASTRUCTURE PROJECTS THROUGH PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS.....	305
Djurayev Olimjon Narkulovich, Ermuminov Elbek Erkin ugli	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТАБАЧНОЙ ПРОДУКЦИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ДОХОДЫ.....	312
Акбарова Лайло Упашевна, Атамуратов Атабек Айбекович	
THE ROLE OF THE STATE BUDGET IN FINANCING THE EDUCATION SYSTEM.....	319
Sarsenbaev Bakhtijan Abdulgazievich, Jenisbaeva Khurziya Yerkinbay kizi, Khayirbaeva Balzira Parakhat kizi	



THE ROLE OF THE STATE BUDGET IN FINANCING THE EDUCATION SYSTEM

Sarsenbaev Bakhitjan Abdulgazievich

Associate Professor of the Department of Finance and Financial technologies of
Karakalpak State University named after Berdakh

ORCID: 0000-0002-6884-2285

E-mail: bsarsenbaev83@gmail.com

Jenisbaeva Khurziya Yerkinbay kizi

Postgraduate (Master's level) student of
Karakalpak State University named after Berdakh

ORCID: 0009-0006-4989-2048

E-mail: xurziyajenisbaeva@gmail.com

Khayirbaeva Balzira Parakhat kizi

Undergraduate (Bachelor's level) student at Karakalpak state university named after Berdakh

ORCID: 0009-0002-7424-0851

E-mail: khayirbaeva@gmail.com

Abstract: This article analyses the role of the state budget in financing the higher education system, its significance in ensuring the financial sustainability of higher education institutions, and the need to diversify funding sources. The main objective of the study is to assess the dynamics of state-budget financing of higher education in Uzbekistan, identify the key advantages and limitations of the existing financing model, and develop scientific and practical recommendations for improving the system based on international experience. In addition, international practice confirms that in developed countries higher education financing is based on a multi-source model, in which the state budget, private sector investment, tuition fees, research grants, and donor funding play an important role. The findings of the study indicate that the state budget remains the leading source of financing in Uzbekistan's higher education system. However, ensuring long-term financial sustainability requires strengthening the financial autonomy of universities, expanding alternative funding sources, and improving the efficiency of budgetary resource allocation.

Key words: higher education, state budget, financing mechanism, budgetary resources, financial sustainability, financial autonomy of universities, alternative funding sources, international experience.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda davlat budgetining roli, uning oliy ta'lim muassasalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarurati tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston sharoitida oliy ta'limni davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish dinamikasini baholash, mavjud moliyalashtirish modelining ustuvor jihatlari va cheklavlarini aniqlash hamda xalqaro tajriba asosida tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shu bilan birga, xalqaro tajriba rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish ko'p manbali modelga asoslanishini, jumladan, davlat budjeti, xususiy sektor investitsiyalari, talabalar to'lovlari, ilmiy grantlar va donorlik mablag'lari muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston oliy ta'lim tizimida davlat budjeti yetakchi moliyalashtirish manbai bo'lib qolayotganini, biroq uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun universitetlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, muqobil moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, davlat budjeti, moliyalashtirish mexanizmi, budjet mablag'lari, moliyaviy barqarorlik, universitetlarning moliyaviy mustaqilliqi, muqobil moliyalashtirish manbalari, xalqaro tajriba.



Аннотация: В данной статье проанализирована роль государственного бюджета в финансировании системы высшего образования, его значение в обеспечении финансовой устойчивости высших образовательных учреждений, а также необходимость диверсификации источников финансирования. Основная цель исследования заключается в оценке динамики финансирования высшего образования за счёт средств государственного бюджета в условиях Узбекистана, выявлении приоритетных аспектов и ограничений действующей модели финансирования, а также разработке научно-практических рекомендаций по совершенствованию системы на основе международного опыта. Наряду с этим международная практика подтверждает, что в развитых странах финансирование высшего образования базируется на многоканальной модели, в которой важную роль играют государственный бюджет, инвестиции частного сектора, плата за обучение, научные гранты и донорские средства. Результаты исследования показывают, что в системе высшего образования Узбекистана государственный бюджет сохраняет статус ведущего источника финансирования. Вместе с тем для обеспечения долгосрочной финансовой устойчивости необходимо усилить финансовую самостоятельность университетов, расширить альтернативные источники финансирования и повысить эффективность использования бюджетных средств.

Ключевые слова: высшее образование, государственный бюджет, механизм финансирования, бюджетные средства, финансовая устойчивость, финансовая самостоятельность университетов, альтернативные источники финансирования, международный опыт.

KIRISH

Ta'lim tizimining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotining eng muhim omillaridan biri bo'lib, u mamlakatning uzoq muddatli strategik maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, oliy ta'lim tashkilotlarining samarali ishlashi, ularning qanday moliyalashtirilishiga bog'liqdir. Ta'lim tizimining rivojlanishi zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim omillaridan biri bo'lib, u mamlakatning uzoq muddatli strategik maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida ham oliy ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, universitetlarning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirish va muqobil moliyalashtirish manbalarini shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu maqolada oliy ta'limni moliyalashtirishning nazariy asoslari, xalqaro tajribalar va milliy amaliyot asosida tahlil qilinib, sohani rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Xalqaro amaliyotda davlat budjeti, talabalar to'lovlari, xususiy investitsiyalar, xalqaro grantlar va donorlik mablag'lari asosida shakllangan aralash moliyalashtirish modellari tobora keng qo'llanilmoqda. Bunday munosabatlar moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, universitetlar mustaqilligini kuchaytirish va innovatsion rivojlanishga zamin yaratadi. Xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish mexanizmlari ta'lim sifati va tadqiqotlar samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

O'zbekiston sharoitida oliy o'quv yurtlarini moliyalashtirish manbalari asosan davlat budjetiga tayanadi. Biroq, 2021-2023-yillarda olib borilgan islohotlar natijasida universitetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va grant asosidagi ilmiy loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari joriy etilmoqda. Jumladan, Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablag'larni jalb etish imkoniyatini kengaytirish va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida 2022-yildan mamlakatimizdagi bir nechta OTMga moliyaviy mustaqillik berildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim tizimini moliyalashtirish bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlarda bir qator yondashuvlar hamda nazariy qarashlar shakllangan. Asosan, uchta asosiy moliyalashtirish modeli mavjud: to'liq davlat tomonidan moliyalashtirish, aralash moliyalashtirish va xususiy moliyalashtirish.

Clark B.R. o'zining «Entrepreneurial Universities» nomli tadqiqotida oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiyalangan moliyaviy manbalar, ya'ni «uchburchak moliyalashtirish modeli» (triple funding model: davlat, talabalar to'lovi, xususiy sektor) ahamiyatini ta'kidlaydi. U universitetlarni mustaqil daromad topishga undash orqali ularning innovatsion salohiyatini oshirish mumkinligini asoslab bergan (Clark, 1998).

Altbach hamkasblari bilan global tendensiyalarni ko'rib chiqib, universitetlarning moliyaviy muammolariga javob sifatida xususiylashtirish, tijoratlashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali muqobil moliyalashtirish mexanizmlari shakllanganligini ta'kidlaydi. Ular ta'limga «yangi biznes modeli» sifatida qaralayotganiga e'tibor qaratadi (Altbach, et al., 2019).



Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun esa davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlarini qo'llash orqali universitetlar va sanoat o'rtasida yaqin aloqani yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi.

Jahon banki hisobotida ta'lim sohasidagi investitsiya loyihalarida xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish usullari, xavf-xatarlarni boshqarish va hukumat kafolatlari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va oliy ta'limda islohotlar doirasidagi hujjatlarda ham oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligi, universitet grantlari, ilmiy tadqiqotlar uchun xususiy investitsiyalar va xalqaro donorlar bilan hamkorlik masalalari ilgari surilgan.


Davlat budjetidan moliyalashtirish oliy ta'lim tashkilotlarining uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, professor-o'qituvchilar va xodimlar mehnatiga haq to'lash hamda ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarining budjetdan moliyalashtirish holatini tahlil qilish va amaldagi mexanizmlarni baholash dolzarb masalalardan biridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda davlat budjetining rolini nazariy, statistik va qiyosiy jihatdan baholashga yo'naltirilgan kompleks yondashuvga asoslanadi. Tadqiqot tavsifiy-tahliliy va qiyosiy xarakterga ega bo'lib, unda oliy ta'limni moliyalashtirishning nazariy asoslari, xalqaro tajriba hamda O'zbekiston amaliyotidagi mavjud holat o'zaro bog'liq holda o'rganildi. Maqolada axborot manbalari sifatida oliy ta'limni moliyalashtirishga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda 2022–2025-yillarda davlat budjetidan oliy ta'lim uchun ajratilgan mablag'lar bo'yicha statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar tahlili orqali davlat, aralash va xususiy moliyalashtirish modellari o'rganildi, hujjatli tahlil asosida O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kengaytirish va muqobil moliyalashtirish manbalarini shakllantirishga oid institutsional-huquqiy asoslar ko'rib chiqildi; statistik-dinamik tahlil yordamida 2022–2025-yillarda budjet mablag'lari hajmidagi o'zgarishlar baholandi; qiyosiy tahlil orqali esa O'zbekiston tajribasi AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Germaniya kabi mamlakatlarning oliy ta'limni moliyalashtirish modellari bilan solishtirildi. Mazkur metodlar davlat budjetining oliy ta'limdagi real ahamiyatini aniqlash, milliy tizimdagi ustuvor va muammoli jihatlarni ko'rsatish hamda xalqaro tajribaga tayangan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Tadqiqotda ekonometrik modellashirish yoki so'rovnoma natijalariga asoslangan empirik baholash usullari qo'llanilmagan, chunki maqolaning asosiy vazifasi mavjud moliyalashtirish holatini nazariy, statistik va qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat budjeti orqali moliyalashtirish oliy ta'lim tizimining barqaror ishlashini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Budjet mablag'lari nafaqat o'quv jarayonini moliyalashtirishga, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash, professor-o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirish va ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yo'naltiriladi. Bundan tashqari, davlat budjeti hisobidan oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron ta'lim platformalarini rivojlantirish va xalqaro reytinglarga kirish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa oliy ta'lim tizimining global ta'lim makoniga integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda (1-rasm).



1-rasm. 2022-2025-yillarda davlat budjetidan oliy ta'lim uchun ajratilgan mablag'lar, mlrd. so'mda



1-rasm ma'lumotlari 2022–2025-yillarda davlat budjetidan oliy ta'lim tizimiga ajratilgan mablag'lar hajmida izchil o'sish tendensiyasi kuzatilganini ko'rsatadi. 2022-yilda ushbu yo'nalishga ajratilgan mablag'lar 4 140,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 6 000,0 mlrd so'mga yetgan. Natijada bir yil ichida moliyalashtirish hajmi 1 860,0 mlrd so'mga yoki qariyb 44,9 foizga oshgan. Bu davrda kuzatilgan keskin o'sish oliy ta'lim sohasini budjet siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qo'llab-quvvatlash kuchayganini anglatadi.

2024–2025-yillarda esa o'sish sur'atlari nisbatan sekinlashgan. Xususan, 2024-yilda oliy ta'lim uchun ajratilgan mablag'lar 6 130,33 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 130,33 mlrd so'mga yoki 2,17 foizga oshgan. 2025-yilda esa ushbu ko'rsatkich 6 270,0 mlrd so'mga yetib, 2024-yilga nisbatan 139,67 mlrd so'mga yoki 2,28 foizga ko'paygan. Demak, 2023-yildagi yuqori o'sishdan so'ng davlat budjetidan oliy ta'limni moliyalashtirish hajmi barqaror, ammo mo'tadil sur'atlarda ortib borgan.

Umuman olganda, 2022–2025-yillar oralig'ida oliy ta'limga ajratilgan budjet mablag'lari 4 140,0 mlrd so'mdan 6 270,0 mlrd so'mgacha oshib, jami 2 130,0 mlrd so'mlik qo'shimcha moliyaviy resurs shakllangan. Bu esa 2025-yilda ajratilgan mablag'lar hajmi 2022-yilga nisbatan 51,4 foizga yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan davrda o'rtacha yillik nominal o'sish sur'ati taxminan 14,8 foizni tashkil etadi. Biroq ushbu o'rtacha ko'rsatkich asosan 2023-yildagi keskin o'sish hisobiga shakllangan bo'lib, keyingi yillarda moliyalashtirish dinamikasi nisbatan barqarorlashgan.

Mazkur tendensiya oliy ta'lim tizimini moliyaviy qo'llab-quvvatlash davlat siyosatida muhim o'rin egallayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, grafikdagi ma'lumotlar nominal mablag'lar hajmini aks ettirgani sababli, ularning real iqtisodiy ta'sirini baholashda inflyatsiya darajasi, talabalar sonining o'sishi, oliy ta'lim muassasalari soni, ish haqi xarajatlari, moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilish xarajatlari hamda bir talabaga to'g'ri keladigan budjet xarajatlari kabi qo'shimcha ko'rsatkichlarni ham inobatga olish zarur. Shunday yondashuv oliy ta'limga ajratilayotgan mablag'larning nafaqat hajm jihatidan, balki samaradorlik va sifat natijalari nuqtayi nazaridan ham chuqurroq baholanishiga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, 2022–2025-yillarda davlat budjetidan oliy ta'lim uchun ajratilgan mablag'lar umumiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Eng yuqori o'sish 2023-yilda kuzatilgan bo'lsa, 2024–2025-yillarda moliyalashtirish hajmi nisbatan sekin, ammo izchil ortib borgan. Bu holat oliy ta'lim tizimining budjet resurslari bilan ta'minlanishi barqarorlashayotganini ko'rsatsa-da, kelgusida ajratilayotgan mablag'larning real qiymati, maqsadli yo'naltirilishi va ta'lim sifati bilan bog'liq natijaviy ko'rsatkichlar asosida kompleks baholash zarurligini taqozo etadi (1-jadval).

1-jadval. Xorijiy mamlakatlarda OTMlarini moliyalashtirish manbalari

Mamlakat	Mamlakat budjeti ulushi (%)	Xususiy sektor (talabalar to'lovlari, investitsiya) ulushi (%)	Boshqa manbalar (%)
AQSH	38	55	7
Buyuk Britaniya	32	60	8
Janubiy Koreya	25	70	5
Germaniya	80	15	5

Oliy ta'limni moliyalashtirish tizimini xalqaro tajriba asosida tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda bu soha ko'p manbali moliyalashtirish modeli asosida tashkil etilgan. Xususan, AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirishda davlat budjeti bilan bir qatorda xususiy sektor, kontrakt to'lovlari, grantlar va ilmiy loyihalaridan tushadigan daromadlar alohida o'rin tutadi. Masalan, AQShda universitetlar daromadining sezilarli qismi kontrakt asosidagi to'lovlar va xususiy investitsiyalar hisobidan shakllansa, Germaniyada davlat moliyalashtirishi ustuvor bo'lsa-da, ilmiy grantlar va sanoat bilan hamkorlik orqali qo'shimcha mablag'lar keng jalb etiladi. Buyuk Britaniyada esa talabalar to'lovlari oliy ta'limni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston tajribasi tahlil qilinganda, oliy ta'limni moliyalashtirishda davlat budjeti ustuvorligi saqlanib qolayotganligi kuzatiladi. Bu holat tizimning ijtimoiy yo'naltirilgan modelga asoslanganligini anglatadi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda xususiy oliy ta'lim tashkilotlari sonining ortishi, kontrakt to'lovlarining kengayishi va xalqaro hamkorlik loyihalarining rivojlanishi moliyalashtirish tizimi bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilinayotganini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi hozirgi bosqichda davlat moliyalashtirishiga asoslangan holda, bosqichma-bosqich aralash (gibrid) moliyalashtirish modeliga o'tish jarayonini boshidan kechirmoqda. Bu esa uzoq muddatda tizimning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim omildir.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2022-2025-yillar davomida O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish uchun ajratilayotgan davlat budjeti mablag'lari hajmida ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatiladi. Bu esa oliy ta'lim sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ajratilayotgan mablag'larning asosiy qismi joriy xarajatlarga, xususan, ish haqi, stipendiyalar va ijtimoiy to'lovlarga yo'naltirilmoqda. Bu holat ta'lim tizimining barqaror ishlashini ta'minlasa-da, rivojlantirish yo'nalishlariga ajratilayotgan mablag'lar ulushini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Natijada, oliy ta'limni moliyalashtirishda davlat budjeti yetakchi rolni saqlab qolib, uning hajmi ortib borayotganiga qaramay, mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish va ularni strategik yo'nalishlarga yo'naltirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida davlat budjeti ushbu sohaning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlovchi asosiy moliyaviy manba sifatida saqlanib qolmoqda. Biroq oliy ta'lim tizimining uzoq muddatli rivojlanishi, xalqaro raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyatini oshirish uchun moliyalashtirish siyosatini yanada takomillashtirish zarur. Shu asosda quyidagi asosiy ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, oliy ta'limga ajratilayotgan davlat budjeti mablag'larini strategik va natijaga yo'naltirilgan tarzda taqsimlash zarur. Budget mablag'lari faqat joriy xarajatlarni qoplash bilan cheklanib qolmasdan, ilmiy tadqiqotlar, raqamli ta'lim infratuzilmasi, laboratoriyalarni modernizatsiya qilish, xalqaro akkreditatsiya, ta'lim sifati va akademik samaradorlikni oshirish kabi ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirilishi lozim. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalariga ajratiladigan mablag'lar ta'lim sifati, ilmiy natijalar, bitiruvchilar bandligi, xalqaro reytinglardagi ishtirok va grantlar jalb qilish darajasi kabi aniq natijadorlik ko'rsatkichlari bilan bog'lanishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kengaytirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish lozim. Universitetlarga o'z daromadlarini mustaqil shakllantirish, ilmiy-amaliy loyihalar, konsalting xizmatlari, xalqaro grantlar, donorlik mablag'lari va sanoat korxonalari bilan hamkorlik orqali qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimining moliyaviy barqarorligi faqat davlat budjetiga tayanish orqali emas, balki davlat, xususiy sektor, talabalar to'lovlari, ilmiy grantlar va donorlik mablag'lari o'rtasidagi muvozanatli moliyalashtirish modeli orqali ta'minlanadi.

Uchinchidan, oliy ta'lim muassasalari, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish universitet infratuzilmasini rivojlantirish, amaliy tadqiqotlarni moliyalashtirish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda bitiruvchilarning mehnat bozori talablariga mos tayyorgarligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bunda xalqaro grantlar, donorlik dasturlari va ilmiy hamkorlik tarmoqlaridan samarali foydalanish oliy ta'lim tizimining ilmiy salohiyati va xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, oliy ta'limni moliyalashtirishda davlat budjeti asosiy tayanch manba sifatida saqlanib qolishi zarur. Shu bilan birga, budget mablag'larining natijadorligini oshirish, universitetlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish va ko'p manbali moliyalashtirish modelini rivojlantirish O'zbekiston oliy ta'lim tizimining moliyaviy barqarorligi, institutsional mustaqilligi va xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Clark, B. R. (1998). *Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation*. Pergamon Press.
2. Altbach, P. G., Reisberg, L., & Rumbley, L. E. (2019). *Trends in Global Higher Education*. Leiden, The Netherlands: Brill. <https://doi.org/10.1163/9789004406155>
3. Khayirbaeva, B., & Sarsenbaev, B. Comparative Macroeconomic Analysis OF Inflation in Uzbekistan AND the United States. *Green Economy and Development*, 3(10), 668417.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/-5841063>
5. Sarsenbaev, B., Rakhimboev, M., Aytmuratova, U., Kaypnazarova, G., & Shamshetova, D. (2025, November). Econometrical modeling of dynamic processes of labor market development. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3331, No. 1, p. 040019). AIP Publishing LLC.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
